



## O'zbekistonda ta'lif -tarbiya va pedagogik qarashlarning rivojlanishida “Temuriylar Renessansi”ning ahamiyati

Bazarova Gulchehra Sa'dilloyevna  
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ilm-fan tarraqiyotida ajdodlarimizning qo'shgan ulkan hissasi hamda Temuriylar Rennesansining yosh avlod ta'lif-tarbiyasidagi axamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ilm-fan, Temuriylar davri, Temur tuzuklari, maktab, islohotlar.

O'rta Osiyo ilm-fanning qadimiy markazlaridan bo'lib, Movarounnahr o'lkasida qadimgi davrlardan boshlab ta'lif beruvchi maskanlar mavjudligi barchaga ayon. Ilk islam uyg'onish davri deya e'tirof etiladigan IX-XII asrlarda Movarounnahr islam dunyosining madaniy markazlaridan biriga aylangan bo'lsa, Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida o'lkamizda ta'limga e'tibor, ilm-fanga homiylik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ko'pgina markaziy shaharlarda oliy ta'lif dargohlari madrasalar barpo etilib, o'z davrining etuk olimu-fozillari dars berishga jalb qilingan. Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari hukmronligi davri yurtimizning ilm-fani, madaniyati va san'ati yuksak darajaga ko'tarilganligi bilan mashhur.

Temuriylar davri renessansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan sultanatda adolatli boshqaruvi tizimi barpo etilganligi bilan belgilanadi. Buyuk sultanat va ma'rifatli yurt barpo etishda qadim turkiy davlatchilik an'analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur har qanday taraqqiyotning asosi sifatlita'lif tizimi ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababli Sohibqiron birinchi galda ta'lif va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, ilmli, ma'rifatli shaxslarning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish yo'lidan bordi. Ulkan sultanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko'plab boshlang'ich mакtablar barpo etildi.

Butun islam davrida bo'lganidek, bu davrda ham mamlakatda ilm-fan rivojida madrassa ta'lifi asosiy o'rintutib, sultanatning madaniy markazlar bo'lgan yirik shaharlarda oliy ta'lif o'choqlari bo'lgan madrasalar ko'plab bunyod etilgan. Ta'limga e'tibor, ilm-fanga homiylik Amir Temur va Temuriylar davrida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. Amir Temur tuzuklarida:

«Katta kichik har bi rshahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar»;

«Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar»;



«Sayidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug'larni aziz tutsinlar»,<sup>14</sup> degan topshiriqlarni alohida belgilab bergen. Sohibqironning topshirig'I o'z davrida butun mamlakat hududida bajarilgan.

Amir Temur madrasalarda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlar (handasa, aljabr\algebra, riyozat\matematika, mantiq, astronomiya\ilmi nujum, adabiyot, tarix, hattotlik va boshqalar) o'qitilishini keng yo'lga qo'ygan. Saltanatda bunyodkorlik ishlarini olib borish uchun riyoziyot, (handasa) geometriya, me'morchilik (arxitektura) yo'nalishida faoliyat olib boradigan olimu-hunarmandlarga kuchli ehtiyoj bo'lgan. Madrasalar Amir Temur va Temuriylar davrida ilmiy markaz – ma'naviyat va ma'rifat maskanlari vazifasini ado etgan. Bunyod etilgan madrasalarda dars o'tishga taniqli olimu fozillar turli Islom mamlakatlaridan jalb etilgan. Samarqandda o'z davrida yagona bo'lgan kutubxona barpo etilgan va bukutubxona fondi Amir Temur avlodni Mirzo Ulug'bek davrida ko'pgina nodir qo'lyozmalar, kitoblar bilan boyitilgan.

Olimu-fozillar vakili bo'lmish Sharofiddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» asarida Amir Temur biror masalani hal qilmoqchi bo'lsa, avval shu sohaning bilimli mutaxassislari, olimlar bilan maslahat qilganligini qayd etadi.

Temuriylar davrida olimu ulamolar hurmatga e'tiborga sazovor bo'lgan ijtimoiy qatlamga aylangan. Bu esa o'z navbatida Movarounnahr va Xurosonda "Temuriylar renessansi" (Ikkinchi Islom uyg'onish davrini) shakllanishiga olib keldi. Sohibqiron bobomizning ilmfanga homiylik siyosatini uning nevarasi Mirzo Ulug'bek davom ettirib u ham yetuk olimu ulamolarni qo'llab-quvvatlagan. Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandda Rasadxona, Buxoroda, G'ijduvonda va Samarqandda madrasalar qurilgan. O'z davrining «Aflatuni» deb nom olgan QozizodaRumi, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviy, mavlono Ali Qushchi va boshqa taniqli zotlar ushbu maskanlarda faoliyat olib borishgan. Ulug'bekning «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asarida 1018 ta yulduzlarning joylashuvi jadvalini tuzishda ushbu olimlarning amaliy ko'magi beqiyos bo'lgan.

Amir Temur avlodlari bo'lmish Shohruh, MirzoUlug'bek, Sulton AbuSaid, SultonHusayn (Boyqaro) davrlarida fan va madaniyat yuksalib, Movarounnahr va Xuros onislom dunyosining yirik madaniy markazlari sifatida dong taratgan.

So'z mulkinining sulton Mir Alisher Navoiy ham o'zdavrining ko'plab fan, san'at va adabiyot namoyandalariga homiylik qilib, Sohibqiron asos solgan an'analarni davom ettirgan. Jumladan, rassom Kamoliddin Behzod, shoirlar Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Binoiy, Zayniddin Vosifiy, musiqashunos Husayn Uddiy, adabiyotshunos olim Davlatshoh Samarqandiy, buyuk notiq Husayn Voiz Koshifiy va boshqalar ijodiy faoliyatida Alisher

<sup>14</sup> Temur tuzuklari //Forschadan| A. SoguniyvaH. Karomatov tarjimasi B. Ahmedov tahriri ostida/ -T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991-55b.



Navoiyning homiylik hissasi katta bo'lgan. Qadimda Movarounnaxr, Turon zamin deb atalgan bugungi yangi O'zbekistonimiz jahon hamjamiyatida o'z o'rni va o'z mavqeiga ega bo'lib bormoqda. Mamlakatdagi har bir soha zamonga xos va mos tarzda rivojlantirilmoqda. Shu o'rinda ta'lism sohasidagi islohotlar haqida to'xtalish joiz. Sababi keyingi yillarda yurtimizda maktab, o'rtal maxsus va oliy ta'lism tizimida raqobat muhitini shakllantirish, davlat-xususiy sherikchilik va xususiy sektor resurslaridan keng foydalanish, aholining oliy ta'lism bilan qamrab olinishini rivojlangan davlatlar darajasiga etkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lism muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilib, yoshlarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, ularning qobiliyat va iste'dodini yuzaga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda gapirganda yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy ta'lism muassasalari soni oshganligini alohida ta'kidlamoqchiman.

2020 yilning 23 sentyabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi 637-sonli qonuni ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib berdi. Negaki, unga muvofiq, ta'lism olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta'lism tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etilib, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkintanlash huquqi berildi.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'lismi qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilmoqda. Joriy yilning “Insonga e'tibor va sifatli ta'lism yili”- deb nomlanishi zamirida juda keng ma'no aks etgan. Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalalaridir” degan chuqur ma'noli so'zлari naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglaymiz<sup>15</sup>. Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon. Ta'lismi tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limgan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”-deb ta'kidlanadi. Shunday ekan, ta'lism va tarbiya ishini uyg'un holda olib borish talab etiladi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta'lism va tarbiya olishiga bog'liqdir. Shu sababli harqaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Anashu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, o'sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan

<sup>15</sup> A. Avloniy „Turkiy guliston yohud axloq“.- T.: „O'qituvchi“. 1992-14b



komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta'lism tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev "2023 yildan maktab ta'lmini xalqaro ta'lism dasturlari asosida butunlay isloq qilishni boshlaymiz. Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lism standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi", –deb o'z murojaatlarida bayon etdilar<sup>16</sup>.

Ta'lism sohasidagi islohotlar haqida fikr bildirgan yurtboshimiz kelgusi yili 70 ta yangi maktab qurilishini, 460 ta maktab esa kengaytirilishini, xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanishini, keyingi besh yilda ularning sonini mingtaga yetkazilishini ta'kidladilar.

Shuningdek 2023 yildan boshlab ta'lism sohasida yangi dastur amalga oshirish va har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lism standartlari joriy etilishi rejalashtirildi.

2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lism sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida jamoatchilik va xalq bilan keng muhokamalarda bildirilgan takliflar asosida 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lism yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.<sup>17</sup>

Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yillarda rivojlantirish strategiyasida ta'lism tizimini yuksak darajada rivojlantirish, O'zbekistonda "Uchinchirenessans" davrini yaratadigan barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb vazifa sifatida belgildi. Ushbu vazifalarni hayotga tatbiq etishda Amir Temur va Temuriylar davri ta'lism tizimini chuqr o'rganish va tarixiy tajribalaridan zamonaviy asosda foydalanish ham amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi davrda yurtimizda faoliyat yuritayotgan barcha ta'lism muassasalari xodimlarining vazifasi yosh avlodga faqatgina bilim bermasdan, innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksakma'naviyat egalari etib tarbiyalashdan iboratdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag'ishlangan bayram tabrigida "«Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 12.21.2022.

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022.28.02 2022y 27-sonli 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lism yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni



**boshlanadi»,** degan g‘oya asosida umummilliy ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga misli ko‘rilmagan e’tibor qaratilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot, sport sohalarini rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligin ioshirish, yoshlarning iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish borasida ham ko‘pgina ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi yurtimizda “Temuriylar Renessansi” davridagi ilm-fan va ma’rifat rivojiga hissa qo‘shtigan ajdodlarimiz boy tajribasini chuqur o‘rgangan holda olib borilayotgan davlat siyosatining UchinchiRenessans– milliy taraqqiyotimizning yangi davri poydevoriniya ratishga xizmatqil moqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur tuzuklari //Forschadan| A. SoguniyvaH. Karomatovtarj; B. Ahmedovtahrir. ostida/ -T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991-55b.
2. A. Avloniy „Turkiy guliston yohud axloq“.- T.: „O‘qituvchi“. 1992-14b
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022.28.0.2 2022y 27-sonli 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni
4. <https://gov.uz/oz/news/>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 12.21.2022.